**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING**
**BUYRUG‘I**

**Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim tashkilotlari rahbar, mutaxassis va pedagog kadrlarining 2024-yil uchun malaka oshirish kurslarida o‘qitish rejasini tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 28-avgust kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 28-sonli bayoni 21-bandi, Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash hamda maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz malakasini oshirishni tashkil etish maqsadida **buyuraman**:

1. Malaka oshirish kurslarida pedagog kadrlarning kasbiy bilim ko‘rsatkichlariga muvofiq ta’lim dasturlari bo‘yicha guruhlar va ta’lim shaklini belgilash 1-ilovadagi mezonlarga muvofiq amalga oshirilsin.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim tashkilotlarining rahbar, mutaxassis va pedagog kadrlarini 2024-yilda malaka oshirish kurslarida o‘qitish rejasi 2-2.3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti (keyingi o‘rinlarda - Institut) (A.Ismoilov) hamda Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari (keyingi o‘rinlarda – Pedagogika markazlari)ga:

maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim tashkilotlari rahbar, mutaxassis va pedagog kadrlarining malakasini oshirish bo‘yicha barcha faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risida nizom talablariga qat’iy rioya qilgan holda ushbu buyruq bilan tasdiqlangan 2024-yil malaka oshirish rejasiga asosan tashkil qilish;

maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim tashkilotlari rahbar, mutaxassis va pedagog kadrlarining malakasini oshirish kurslarini O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi pedagog kadrlarini uzluksiz kasbiy

rivojlantirishda tabaqalashgan ta'lim dasturlarini joriy etish haqida"gi 70-xdfu-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan tayanch o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlariga qat'iy amal qilgan holda tashkil etish;

malaka oshirish kursi boshlanishidan oldin har bir tinglovchining "Uzluksiz kasbiy ta'lim" platformasida (ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa) ro'yxatdan o'tishini va kursni muvaffaqiyatli tugatganlar to'g'risidagi ma'lumotlarni platformaga kiritilishini ta'minlash;

maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining ehtiyojlarini doimiy ravishda o'rganib borish asosida turli shakl va mazmundagi malaka oshirish kurslarini tashkil qilish;

malaka oshirish kurslarini tashkil qilishda mustaqil, ishdan ajralgan va ishdan ajralmagan holda malaka oshirish shakllaridan unumli foydalanish, shu jumladan, bir-nechta shakllarini o'z ichiga olgan malaka oshirishning uyg'unlashgan (blended-learning) kurslarni tashkil etish;

pedagog xodimlarga qulaylik yaratish maqsadida ayrim malaka oshirish kurslarini chekka hududlarga chiqqan holda "sayyor" tarzda o'tkazish;

doimiy ravishda monitoring qilish asosida malaka oshirish kurslaridagi o'quv jarayoni sifati va samaradorligini oshirib borish;

malaka oshirish kurslarini tashkil etishda maxsus tayyorgarlikdan o'tgan oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini, ilg'or amaliyotchi pedagoglar va boshqaruv organlari mutaxassislarini jalb etish choralarini ko'rish hamda tinglovchilarning o'qishi va yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish vazifalari yuklatilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari:

kasbiy bilim ko'rsatkichlari diagnostikasi natijalariga asosan har bir tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan ushbu buyruq bilan tasdiqlangan 2024-yil malaka oshirish rejasiga muvofiq ta'lim muassasalari kesimida rahbar, mutaxassis va pedagog kadrlarining oylik va haftalik reja ko'rsatkichlari shakllantirilishini;

hududdagi ta'lim muassasalari rahbar, mutaxassis va pedagog kadrlarining malaka oshirishga o'z vaqtida va to'liq jalb qilinishini;

xodimlarning mustaqil, ishdan ajralgan va ishdan ajralmagan shakldagi malaka oshirish jarayonlari monitoringi olib borilishini ta'minlasin.

5. Pedagog kadrlarni salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova), Institut (A.Ismoilov)ga:

maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, mutaxassis va pedagog kadrlarining malakasini oshirish kurslaridagi o'qish holatini, ta'lim sifati va samaradorligini hududlarga chiqqan holda monitoring qilish;

monitoring qilish jarayonlariga maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari mutaxassislarini jalb qilish;

monitoring natijalariga asosan tegishli taklif va tavsiyalarni vazirlik rahbariyatiga kiritib borish;

pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari hamda "Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari reyestri"ga kiritilgan nodavlat ta'lim tashkilotlarida haqiqatda malaka oshirgan va belgilangan tartibda sertifikatga ega bo'lgan tinglovchilar to'g'risida ma'lumotlarga asosan navbatdagi oyning 3-kuniga qadar tegishli mablag' to'lanishi yuzasidan talabnomani Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (F.Jamuratova)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (F.Jamuratova) "Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari reyestri"ga kiritilgan oliy ta'lim muassasalari va nodavlat ta'lim tashkilotlari bilan vazirlik o'rtasida shartnomalar tuzilishi hamda talabnoma asosida hisob-kitoblarga muvofiq to'lovlarning amalga oshirilishini ta'minlasin.

7. Pedagog kadrlarni salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova) 2024-yil malaka oshirish rejasining bajarilishi nazoratini olib borsin va har chorakda vazirlik rahbariyatiga axborot kiritib borsin.

8. Devonxona (D.Isxakova) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlikning tarkibiy boshqarma va bo'limlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tegishli tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

9. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** ASLIGA TO'G'RI **X. Umarova**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI DEVONXONA

Toshkent sh.,
2023-yil "28"-dekabr
577-son

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2023-yil "28"-dekabrdagi
"577"-son buyrug'iga
1-ILOVA

**Malaka oshirish kurslarida pedagog kadrlarning kasbiy bilim ko'rsatkichlariga muvofiq ta'lim dasturlari bo'yicha guruhlar va ta'lim shaklini belgilash mezonlari**

| Kasbiy bilim ko'rsatkichlari natijalari | Guruhlar | Ta'lim shakli |
|---|---|---|
| 76-100 ball natija ko'rsatgan pedagog kadrlar | 1-guruh | Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish |
| | | Mustaqil ta'lim |
| 56-75 ball natija ko'rsatgan pedagog kadrlar | 2-guruh | Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish |
| | | Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish |
| | | Mustaqil ta'lim |
| 31-55 ball natija ko'rsatgan pedagog kadrlar | 3-guruh | Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish |
| | | Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish |
| | | Mustaqil ta'lim |
| 0-30 ball natija ko'rsatgan yoki diagnostika sinovlarida sababsiz ishtirok etmagan pedagog kadrlar | 4- guruh | Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish |
| | | Mustaqil ta'lim |

"Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2023-yil "28"-dekabrdagi 577 - son buyrug'iga
2-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ta'lim tashkilotlarining rahbar, mutaxassis va pedagog kadrlarini 2024-yilda malaka oshirish kurslarida o'qitish rejasi**

| T/r | Viloyatlar | Jami malaka oshiradigan xodimlar soni | Shu jumladan: | | | Ta'lim tashkiloti bo'yicha: | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Maktab o'qituvchilari | Maktab ta'limi muassasalari rahbar va mutaxassis xodimlari | Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari | Pedagogika markazi | % | Uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasi | % | Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasasi, nodavlat ta'lim tashkiloti | % |
| 1 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 36498 | 32917 | 3581 | 0 | 27462 | 75 | 3411 | 9 | 5625 | 15 |
| 2 | Andijon viloyati | 36037 | 33693 | 2175 | 169 | 21148 | 59 | 5658 | 16 | 9231 | 26 |
| 3 | Buxoro viloyati | 28288 | 25138 | 2664 | 486 | 14611 | 52 | 5197 | 18 | 8480 | 30 |
| 4 | Jizzax viloyati | 21409 | 18975 | 2434 | 0 | 13075 | 61 | 3167 | 15 | 5167 | 24 |
| 5 | Qashqadaryo viloyati | 61043 | 54278 | 6107 | 658 | 41219 | 68 | 7533 | 12 | 12291 | 20 |
| 6 | Navoiy viloyati | 21175 | 19022 | 1786 | 367 | 12262 | 58 | 3388 | 16 | 5525 | 26 |
| 7 | Namangan viloyati | 33201 | 29674 | 2800 | 727 | 18356 | 55 | 5641 | 17 | 9204 | 28 |
| 8 | Samarqand viloyati | 60072 | 52588 | 6507 | 977 | 38735 | 64 | 8108 | 13 | 13229 | 22 |
| 9 | Surxondaryo viloyati | 38243 | 33453 | 4102 | 688 | 23504 | 61 | 5602 | 15 | 9137 | 24 |
| 10 | Sirdaryo viloyati | 11871 | 10456 | 1415 | 0 | 6758 | 57 | 1943 | 16 | 3170 | 27 |
| 11 | Toshkent viloyati | 35070 | 31095 | 3975 | 0 | 19830 | 57 | 5791 | 17 | 9449 | 27 |
| 12 | Farg'ona viloyati | 53697 | 48049 | 5048 | 600 | 27759 | 52 | 9856 | 18 | 16082 | 30 |
| 13 | Xorazm viloyati | 29681 | 26507 | 2904 | 270 | 15611 | 53 | 5347 | 18 | 8723 | 29 |
| 14 | Toshkent shahar | 22545 | 20871 | 1674 | 0 | 10815 | 48 | 4457 | 20 | 7273 | 32 |
| Jami: | | **488830** | **436716** | **47172** | **4942** | **291145** | **60** | **75099** | **15** | **122586** | **25** |

*Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasasi, nodavlat ta'lim tashkiloti tomonidan malaka oshirish tashkil etilmaganda ushbu toifa xodimlar "Uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasi" da onlayn malaka oshirishi mumkin

"Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2023-yil "28"-dekabrdagi 577- son buyrug'iga
2.1-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ta'lim tashkilotlarining rahbar, mutaxassis va pedagog kadrlarini 2024-yilda malaka oshirish kurslarida o'qitish rejasi (yo'nalishlar bo'yicha)**

| T/r | Malaka oshirish yo'nalishlari | Jami malaka oshiradiganlar soni | Shu jumladan: | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Pedagogika markazlarida | % | Uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasida | % | Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasasi, nodavlat ta'lim tashkilotida | % |
| 1 | Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari | 12679 | 12679 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 2 | Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari | 12184 | 12184 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 3 | O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari (Ona tili va adabiyoti) | 36362 | 15595 | 43 | 7891 | 22 | 12876 | 35 |
| 4 | Qoraqalpoq tili va adabiyoti o'qituvchilari | 1625 | 1624 | 100 | 1 | 0 | 0 | 0 |
| 5 | Rus tili va adabiyoti (rus sinflarda) o'qituvchilari | 4804 | 2632 | 55 | 825 | 17 | 1347 | 28 |
| 6 | Tojik tili va adabiyoti óqituvchilari | 537 | 537 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 7 | Qirgiz tili va adabiyoti o'qituvchilari | 40 | 40 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 8 | Qozoq tili va adabiyoti o'qituvchilari | 658 | 658 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 9 | Turkman tili va adabiyoti o'qituvchilari | 156 | 156 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 10 | Ingliz tili o'qituvchilari | 41754 | 24782 | 59 | 6449 | 15 | 10523 | 25 |
| 11 | Nemis tili o'qituvchilari | 2256 | 2254 | 100 | 2 | 0 | 0 | 0 |
| 12 | Fransuz tili o'qituvchilari | 1646 | 501 | 30 | 435 | 26 | 710 | 43 |
| 13 | Rus tili (o'zbek va qardosh tillardagi sinflarda) o'qituvchilari | 25805 | 17059 | 66 | 3323 | 13 | 5423 | 21 |
| 14 | Davlat (o'zbek) tili o'qituvchilari | 5077 | 2586 | 51 | 947 | 19 | 1544 | 30 |
| 15 | Davlat (qoraqalpoq) tili o'qituvchilari | 1239 | 1239 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 16 | Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (o'zbek sinflarda) | 105306 | 35448 | 34 | 26546 | 25 | 43312 | 41 |
| 17 | Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (qoraqalpoq sinflarda) | 3224 | 2658 | 82 | 215 | 7 | 351 | 11 |
| 18 | Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (rus sinflarda) | 4567 | 2039 | 45 | 961 | 21 | 1567 | 34 |
| 19 | Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (tojik sinflarda) | 735 | 735 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 20 | Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (qirg'iz sinflarda) | 77 | 77 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 21 | Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (qozoq sinflarda) | 1180 | 1180 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 22 | Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (turkman sinflarda) | 229 | 229 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 23 | Kimyo o'qituvchilari | 12903 | 9052 | 70 | 1463 | 11 | 2388 | 19 |
| 24 | Biologiya o'qituvchilari | 18187 | 15529 | 85 | 1010 | 6 | 1648 | 9 |
| 25 | Geografiya o'qituvchilari | 14065 | 4931 | 35 | 3471 | 25 | 5663 | 40 |
| 26 | Fizika o'qituvchilari | 14959 | 12366 | 83 | 985 | 7 | 1608 | 11 |
| 27 | Matematika o'qituvchilari | 36093 | 28557 | 79 | 2864 | 8 | 4672 | 13 |
| 28 | Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari | 15531 | 10519 | 68 | 1905 | 12 | 3107 | 20 |
| 29 | Tarix o'qituvchilari | 22909 | 13837 | 60 | 3447 | 15 | 5625 | 25 |
| 30 | Davlat va huquq asoslari o'qituvchilari | 6001 | 3500 | 58 | 950 | 16 | 1551 | 26 |
| 31 | Musiqa madaniyati o'qituvchilari | 8951 | 3828 | 43 | 1947 | 22 | 3176 | 35 |
| 32 | Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilari | 9936 | 5031 | 51 | 1864 | 19 | 3041 | 31 |
| 33 | Texnologiya fani o'qituvchilari | 21971 | 10766 | 49 | 4258 | 19 | 6947 | 32 |
| 34 | Iqtisodiy bilim asoslari o'qituvchilari | 3206 | 2434 | 76 | 293 | 9 | 479 | 15 |
| 35 | Tarbiya fani o'qituvchilari | 7907 | 7025 | 89 | 335 | 4 | 547 | 7 |
| 36 | Yordamchi maktab va maktab internatlari texnologiya fani o'qituvchilari | 235 | 235 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 37 | Kar, zaif eshituvchi bolalar hamda "Nurli maskan" maktab va maktab internatlari texnologiya fani o'qituvchilari | 132 | 132 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 38 | Umumta'lim maktab kutubxona rahbar va xodimlari | 9784 | 9784 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 39 | "Barkamol avlod" bolalar maktabi to'garak rahbarlari | 2854 | 2854 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 40 | Umumta'lim maktablari amaliyotchi psixologlari | 12525 | 6416 | 51 | 2321 | 19 | 3788 | 30 |
| 41 | Maxsus maktab internatlari tarbiyachilari | 2313 | 1229 | 53 | 412 | 18 | 672 | 29 |
| 42 | O'qituvchi-logoped | 1286 | 1286 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 43 | Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari | 4942 | 4942 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| **Jami:** | | **488830** | **291145** | **60** | **75123** | **15** | **122562** | **25** |

*Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasasi, nodavlat ta'lim tashkiloti tomonidan malaka oshirish tashkil etilmaganda ushbu toifa xodimlar "Uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasi"da onlayn malaka oshirishi mumkin

"Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2023-yil "28"-dekabrdagi 577 son buyrug'iga
2.2-ILOVA

**A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida 2024-yilda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarida ta'lim muassasalari rahbar kadrlarni o'qitish rejasi** (yo'nalishlar bo'yicha)

| T/r | Malaka oshirish yo'nalishlari | Jami kurslarga jalb etiladiganlar soni | Shundan, | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ishlab chiqarishdan ajralgan holda | % | Uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasida | % |
| 1. | Umumiy o'rta ta'lim maktab direktori | 9047 | 5456 | 60 | 3591 | 40 |
| 2. | "Barkamol avlod" bolalar maktabi direktori | 219 | 219 | 100 | 0 | 0 |
| 3. | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari direktori | 115 | 115 | 100 | 0 | 0 |
| 4. | Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri va sho'ba mudiri | 348 | 210 | 60 | 138 | 40 |
| **Jami** | | **9729** | **6000** | **62** | **3729** | **38** |

"Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2023-yil "28"-dekabrdagi 577 son buyrug'iga
2.3-ILOVA

**A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida 2024-yilda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarida ta'lim muassasalari rahbar kadrlarni o'qitish rejasi**

| T/r | Viloyatlar | Jami malaka oshiradiganlar soni | Shu jumladan: | | | | Ta'lim shakli bo'yicha: | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Umumiy o'rta ta'lim maktab direktori | "Barkamol avlod" bolalar maktabi direktori | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasa direktori | Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri va sho'ba mudiri | Ishlab chiqarishdan ajralgan holda | % | Uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasida | % |
| 1 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 693 | 644 | 18 | 6 | 25 | 430 | 62 | 264 | 38 |
| 2 | Andijon viloyati | 739 | 679 | 17 | 11 | 32 | 459 | 62 | 280 | 38 |
| 3 | Buxoro viloyati | 520 | 475 | 14 | 7 | 24 | 324 | 62 | 196 | 38 |
| 4 | Jizzax viloyati | 530 | 499 | 14 | 4 | 13 | 328 | 62 | 202 | 38 |
| 5 | Qashqadaryo viloyati | 1152 | 1097 | 17 | 6 | 32 | 707 | 61 | 445 | 39 |
| 6 | Navoiy viloyati | 351 | 326 | 11 | 3 | 11 | 217 | 62 | 134 | 38 |
| 7 | Namangan viloyati | 686 | 637 | 13 | 8 | 28 | 422 | 61 | 265 | 39 |
| 8 | Samarqand viloyati | 1189 | 1132 | 17 | 8 | 32 | 727 | 61 | 462 | 39 |
| 9 | Surxondaryo viloyati | 911 | 859 | 16 | 6 | 30 | 556 | 61 | 354 | 39 |
| 10 | Sirdaryo viloyati | 307 | 280 | 12 | 4 | 11 | 191 | 62 | 116 | 38 |
| 11 | Toshkent viloyati | 847 | 787 | 23 | 15 | 22 | 529 | 62 | 318 | 38 |
| 12 | Farg'ona viloyati | 927 | 857 | 20 | 12 | 38 | 575 | 62 | 351 | 38 |
| 13 | Xorazm viloyati | 530 | 483 | 14 | 7 | 26 | 328 | 62 | 202 | 38 |
| 14 | Toshkent shahar | 347 | 292 | 13 | 18 | 24 | 206 | 59 | 141 | 41 |
| Jami: | | 9729 | 9047 | 219 | 115 | 348 | 6000 | 62 | 3729 | 38 |